Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, amaldagi iqtisodiy adabiyotlarda investitsion jozibadorlikni baholashning bir nechta uslubiy yondashuvlari (natijaviy, resurs, institutsional, ko'p mezonli) mavjud bo'lsa-da, ularning har biri alohida qo'llanilganda cheklangan natija beradi: natijaviy yondashuv faqat moliyaviy ko'rsatkichlarga asoslanib, institutsional va innovatsion omillarni chetda qoldiradi; resurs yondashuvi esa xarajatlar samaradorligini baholashga yo'naltirilgan bo'lib, bozor risklarini to'liq qamrab olmaydi. Shu sababli ushbu yondashuvlarni uyg'unlashtiruvchi kompleks uslubiy model ishlab chiqish alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Sohada mavjud asosiy muammolar quyidagilardan iborat: birinchidan, investitsion jozibadorlikni baholashda turli uslubiy yondashuvlar o'rtasida metodologik muvofiqlashtirishning yo'qligi; ikkinchidan, qurilish sanoatiga xos omillar (fazoviy-shaharsozlik, ekologik, manfaatdor tomonlar bilan bog'liq) baholash modellarida yetarli darajada aks etmasligi; uchinchidan, omillarning nisbiy ahamiyatini (vazn koeffitsiyentlarini) aniqlashda ekspertlar bahosining subyektivligi; to'rtinchidan, baholash natijalarini amaliy qarorlar bilan bog'lovchi integral ko'rsatkichlarning yetishmasligi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsion jozibadorlikni baholash nazariyasi portfel nazariyasi va xorijiy investitsiyalar nazariyasi kabi klassik iqtisodiy konsepsiyalarga borib taqaladi. G. Markovisning portfel nazariyasiga ko'ra, investitsion qarorlar daromadlilik va risk o'rtasidagi mutanosiblikka asoslanadi, bu esa investitsion jozibadorlikni baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda risk darajasini ham hisobga olish zaruratini asoslaydi [1]. J. Danningning eklektik paradigmasiga ko'ra esa investitsion jozibadorlik mulkiy, joylashuv va internalizatsiya ustunliklarining o'zaro uyg'unligida namoyon bo'ladi, bu nazariya qurilish sanoatida hududiy omillarning (joylashuv, infratuzilma) investitsion jozibadorlikka ta'sirini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega [2].

So'nggi yillarda chop etilgan xorijiy tadqiqotlarda investitsion jozibadorlikni baholashning zamonaviy uslubiy yondashuvlari faol rivojlanmoqda. A. Badavi va hammualliflarning tadqiqotida qurilish korxonalari raqobatbardoshligini baholash uchun uchta ustun (moliyaviy, norasmiy ichki va norasmiy tashqi) hamda 26 omilni qamrovchi ko'p mezonli qaror qabul qilish (MCDM) modeli ishlab chiqilgan bo'lib, bu model investitsion jozibadorlikni baholashda ham metodologik asos sifatida qo'llanilishi mumkin [3]. N. Proskurnina va Ya. Chornomordning tadqiqotida investitsion jozibadorlikni baholashning to'rt bosqichli kompleks uslubiyoti taklif etilib, unda korxonaning iqtisodiy salohiyati, moliyaviy holati, biznes-rejalashtirish darajasi va diskontlangan pul oqimlari tahlili izchil ravishda amalga oshiriladi [4]. M. A. Tachega va hammualliflarning BRIKS+ mamlakatlari misolidagi tadqiqotida investitsion jozibadorlikka tartibga solish sifati, hukumat samaradorligi va korrupsiyaga qarshi kurashish kabi institutsional omillarning ta'siri miqdoriy ravishda isbotlangan [5].

MDH davlatlari misolida ushbu masala alohida chuqurlikda o'rganilgan. V. Velichko, Ye. Griskov va D. Prunenkoning Ukraina qurilish korxonalari misolidagi tadqiqotida investitsion jozibadorlikni manfaatdor tomonlar (buyurtmachilar, xodimlar, menejment, davlat idoralari, raqobatchilar) tizimi bilan bog'liq holda baholashga qaratilgan iqtisodiy-matematik model ishlab chiqilgan bo'lib, ierarxiyalarni tahlil qilish usuli (AHP) yordamida har bir manfaatdor tomon guruhining nisbiy ahamiyati aniqlangan [6]. K. Mamonov va hammualliflarning shahar yerlarining investitsion jozibadorligini hisoblash bo'yicha tadqiqotida esa fazoviy-hududiy omillarni baholash modellariga integratsiyalash uslubiyati asoslangan [7].

Mahalliy olimlarning tadqiqotlarida ham mavzuning amaliy jihatlari yoritilgan. O. T. Astonaqulov va hammualliflarning tadqiqotida innovatsion sanoatda investitsion jarayonni buxgalteriya hisobida aks ettirishning strategik ahamiyati asoslanib, investitsion qarorlarning moliyaviy hisobotlar bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatilgan [8]. Muallifning o'zi tomonidan ilgari olib borilgan tadqiqotda qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatidagi investitsion loyihalarning holati tahlil qilinib, investitsion jozibadorlikni oshirishda tarmoq ichidagi tarkibiy o'zgarishlarning roli ko'rsatilgan edi [9]. I. O. Karimovning fikricha, «qurilish sanoatida investitsion loyihalarning

samaradorligi nafaqat moliyaviy koʻrsatkichlar, balki tarmoq tarkibiy tuzilmasining modernizatsiyalashuv darajasi bilan ham chambarchas bogʻliqdir» [9].

Yuqorida koʻrib chiqilgan nazariy va amaliy tadqiqotlarni umumlashtirib, shuni taʼkidlash mumkinki, mavjud ilmiy adabiyotlarda investitsion jozibadorlikni baholashning alohida yondashuvlari (portfel nazariyasi, MCDM, institutsional tahlil, manfaatdor tomonlar modeli) keng oʻrganilgan boʻlsa-da, ularni qurilish sanoatining oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yaxlit integral model shaklida uygʻunlashtiruvchi uslubiy yondashuv Oʻzbekiston sharoitida yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mazkur ilmiy boʻshliq ushbu maqolada qoʻllaniladigan mualliflik yondashuvining nazariy asosini tashkil etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mavzuga oid institutsional va dinamik tahlil, mantiqiy taqqoslash, umumlashtirish, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, statistik hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, investitsion jozibadorlik omillarining nisbiy ahamiyatini aniqlashda ekspertlar bahosi va ierarxiyalarni tahlil qilish (AHP) usulining nazariy asoslaridan foydalanildi. Tadqiqot nazariy-uslubiy xususiyatga ega boʻlib, asosiy eʼtibor qurilish sanoati korxonalarida investitsion jozibadorlikni baholash modellarining nazariy asoslarini ochib berishga qaratilgan. Maʼlumotlar manbai sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi, Markaziy bank hamda xalqaro tadqiqot markazlarining rasmiy hisobotlaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsion jozibadorlik deganda korxona, tarmoq yoki hududning investorlar uchun jalb qiluvchanlik darajasini ifodalovchi, moliyaviy-iqtisodiy, institutsional, innovatsion, hududiy va ijtimoiy omillarning oʻzaro taʼsiri natijasida shakllanuvchi kompleks iqtisodiy kategoriya tushuniladi. Qurilish sanoati uchun investitsion jozibadorlik tushunchasi alohida ahamiyatga ega, chunki tarmoq yuqori kapital sigʻimkorligi, uzoq muddatli loyiha sikli va koʻp sonli manfaatdor tomonlar ishtiroki bilan tavsiflanadi. Investitsion jozibadorlikni baholash esa ushbu omillarning miqdoriy va sifat jihatdan oʻlchanishini, ularning nisbiy ahamiyatini aniqlashni hamda yakuniy integral koʻrsatkich shaklida ifodalashni nazarda tutadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsion jozibadorlikni baholashning bir nechta uslubiy yondashuvlari mavjud boʻlib, ularning har biri oʻziga xos afzallik va cheklovlarga ega. Ushbu yondashuvlarni qiyosiy tarzda koʻrsatish maqsadida quyida tahliliy jadval keltirilgan (1-jadval).

1-jadval.
Investitsion jozibadorlikni baholashning uslubiy yondashuvlari qiyosiy tahlili

| Uslubiy yondashuv | Asosiy mazmuni | Afzalligi | Cheklovi |
|---|---|---|---|
| Natijaviy yondashuv | Moliyaviy natija (daromad, rentabellik) asosiy mezon sifatida olinadi | Hisoblash sodda, maʼlumotlar ochiq | Institutsional va innovatsion omillarni hisobga olmaydi |
| Resurs yondashuvi | Sarflangan resurslar (kapital, mehnat, vaqt) samaradorligi baholanadi | Xarajatlar samaradorligini aniq koʻrsatadi | Bozor risklarini toʻliq qamrab olmaydi |
| Institutsional yondashuv | Huquqiy baza, tartibga solish sifati, shaffoflik darajasi tahlil qilinadi | Uzoq muddatli barqarorlikni baholashga imkon beradi | Miqdoriy oʻlchash murakkab, koʻpincha sifatiy tavsifga asoslanadi |
| Koʻp mezonli baholash (MCDM) | Bir nechta omil guruhlari vazn koeffitsientlari bilan integratsiyalashadi | Kompleks va moslashuvchan, turli omillarni birlashtiradi | Vazn koeffitsientlarini belgilashda ekspertlar subʼektivligi |
| Manfaatdor tomonlar yondashuvi | Buyurtmachilar, xodimlar, davlat, raqobatchilar bilan munosabatlar baholanadi | Ijtimoiy va tashkiliy omillarni hisobga oladi | Standartlashgan oʻlchov birligi mavjud emas |

*Manba: [1; 2; 3; 4; 6] asosida muallif tomonidan tuzilgan*

1-jadval maʼlumotlari shuni koʻrsatadiki, har bir uslubiy yondashuv investitsion jozibadorlikning maʼlum bir jihatini aks ettiradi, ammo ularning hech biri alohida qoʻllanilganda toʻliq va xolis baho bera olmaydi. Ayniqsa, koʻp mezonli baholash (MCDM) yondashuvi boshqa yondashuvlarning afzalliklarini oʻzida mujassamlashtirish imkoniga ega boʻlgani sababli, qurilish sanoatida integral baholash modelini yaratishda asosiy metodologik vosita sifatida tanlandi.

Investitsion jozibadorlik omillarini tizimlashtirish va ularning amaldagi dinamikasini koʻrsatish maqsadida 2021–2025-yillar boʻyicha statistik maʼlumotlar asosida integral baholash indeksining tarkibiy koʻrsatkichlari tahlil qilindi (2-jadval).

2-jadval.
Qurilish sanoati korxonalarining integral investitsion jozibadorlik indeksi tarkibiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2021–2025 yy., shartli norma 0–1)

| Yillar | Moliyaviy-iqtisodiy omil indeksi (0–1) | Institutsional omil indeksi (0–1) | Innovatsion-texnologik omil indeksi (0–1) | Integral jozibadorlik indeksi (IIJ) |
|---|---|---|---|---|
| 2021 | 0,52 | 0,41 | 0,33 | 0,42 |
| 2022 | 0,58 | 0,46 | 0,39 | 0,48 |
| 2023 | 0,64 | 0,52 | 0,45 | 0,54 |
| 2024 | 0,69 | 0,58 | 0,53 | 0,60 |
| 2025 | 0,74 | 0,63 | 0,60 | 0,66 |

*Manba: rasmiy statistik ma'lumotlar asosida muallif hisob-kitoblari [16; 17; 18]*

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2021–2025-yillar davomida barcha uchta tarkibiy omil indeksi izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan, ammo ularning o'sish sur'ati turlicha. Ayniqsa, e'tiborli jihat — innovatsion-texnologik omil indeksining eng tez sur'atda (0,33 dan 0,60 gacha, ya'ni 82 foizga) o'sgani, bu raqamlashtirish va zamonaviy qurilish texnologiyalarining investitsion jozibadorlikka ta'siri kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Institutsional omil indeksi esa nisbatan sekinroq (0,41 dan 0,63 gacha, 54 foizga) o'sgan, bu institutsional-huquqiy muhitni takomillashtirish borasida hali sezilarli zaxiralar mavjudligidan dalolat beradi. Natijada umumlashtirilgan integral jozibadorlik indeksi 0,42 dan 0,66 gacha oshgan, bu qurilish sanoatining investitsion jozibadorligi barqaror sur'atlarda oshib borayotganini tasdiqlaydi.

Yuqorida bayon etilgan nazariy tahlil va statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan investitsion jozibadorlik omillarini baholashning nazariy-uslubiy yondashuvlari modeli ishlab chiqildi (1-rasm).




**1-rasm. Investitsion jozibadorlik omillarini baholashning nazariy-uslubiy yondashuvlari modeli (muallif ishlanmasi)**

Model uch darajadan iborat: birinchi darajada to'rtta asosiy uslubiy yondashuv (natijaviy, resurs, institutsional, ko'p mezonli) joylashgan; ikkinchi darajada ularni birlashtiruvchi investitsion jozibadorlik omillari guruhlari (moliyaviy-iqtisodiy, innovatsion, fazoviy-shaharsozlik, ekologik, manfaatdor tomonlar, xavfsizlik) aks etgan; uchinchi darajada esa yakuniy natija — umumlashtirilgan integral baholash indeksi (IIJ) joylashtirilgan.

Taklif etilayotgan model V. Velichko va hammualliflarning manfaatdor tomonlar modeli [6] hamda A. Badavi va hammualliflarning ko'p mezonli baholash modeli [3] g'oyalarini uyg'unlashtirgan holda, ularni qurilish sanoatining o'ziga xos omillari (fazoviy-shaharsozlik, ekologik) bilan boyitadi. Model, shuningdek, G. Markovisning portfel nazariyasi [1] bilan uyg'un ravishda, investitsion jozibadorlikni baholashda faqat kutilayotgan samaradorlikni emas, balki risk darajasini ham hisobga olish zaruratini ta'kidlaydi.

Investitsion jozibadorlikni kompleks baholash uchun muallif tomonidan quyidagi integral indeks taklif etiladi:

$$IIJ = w1 \cdot Km + w2 \cdot Ki + w3 \cdot Kn + w4 \cdot Kf + w5 \cdot Kr$$

Bu yerda:

IIJ - korxona yoki tarmoqning integral investitsion jozibadorlik indeksi;

Km - moliyaviy-iqtisodiy omil koeffitsienti;

Ki - institutsional omil koeffitsienti;

Kn - innovatsion-texnologik omil koeffitsienti;

Kf - fazoviy-shaharsozlik va ekologik omil koeffitsienti;

Kr - manfaatdor tomonlar va xavfsizlik omili koeffitsienti;

w1…w5 - tegishli omillarning ierarxiyalarni tahlil qilish (AHP) usuli yordamida ekspertlar bahosi asosida belgilanadigan vazn koeffitsientlari bo‘lib, ularning yig‘indisi birga teng (Σwi=1). Har bir koeffitsient 0 dan 1 gacha bo‘lgan shkalada normanlashtiriladi, bu esa turli korxonalar yoki davrlar kesimida investitsion jozibadorlikni taqqoslash imkonini beradi.

Investitsion jozibadorlikka ta’sir etuvchi omillarni yakuniy tizimlashtirgan holda, ularni quyidagi olti guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

birinchidan, moliyaviy-iqtisodiy omillar - rentabellik, likvidlilik, moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari;

ikkinchidan, innovatsion-texnologik omillar - raqamlashtirish darajasi, zamonaviy qurilish texnologiyalarini qo‘llash;

uchinchidan, institutsional omillar - huquqiy bazaning barqarorligi, soliq va bojxona imtiyozlari;

to‘rtinchidan, fazoviy-shaharsozlik omillari - ob’ektning joylashuvi, infratuzilma rivojlanganligi;

beshinchidan, ekologik omillar - atrof-muhitga ta’sir, barqaror rivojlanish tamoyillariga moslik;

oltinchidan, manfaatdor tomonlar va xavfsizlik omillari - buyurtmachilar, xodimlar, davlat idoralari bilan munosabatlar sifati hamda loyiha xavfsizligi darajasi. Ushbu guruhlarning har biri integral indeks tarkibida o‘z vazn koeffitsientiga ega bo‘lib, ularning nisbiy ahamiyati tarmoq xususiyatlari va tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Investitsion jozibadorlikni baholash natijalarini qo‘llash mezonlari sifatida quyidagilar taklif etiladi: integral indeksning vaqt bo‘yicha o‘sish dinamikasi; tarkibiy omillar o‘rtasidagi mutanosiblik darajasi; baholash natijalarining xalqaro reyting tizimlari (masalan, Doing Business, Global Competitiveness Index) bilan korrelyatsiyasi; baholash jarayonining shaffofligi va takrorlanuvchanligi. Ushbu mezonlar majmui davlat idoralari, investorlar va qurilish korxonalari rahbariyati uchun investitsion jozibadorlikni muntazam monitoring qilish imkonini beradi.

Taklif etilgan integral model amaliyotda qanday qo‘llanilishi mumkinligini ko‘rsatish maqsadida quyidagi misolni keltirish mumkin. Agar ekspertlar bahosi asosida vazn koeffitsientlari moliyaviy-iqtisodiy omil uchun $w_1$=0,30, institutsional omil uchun $w_2$=0,25, innovatsion-texnologik omil uchun $w_3$=0,20, fazoviy-shaharsozlik va ekologik omil uchun $w_4$=0,15, manfaatdor tomonlar va xavfsizlik omili uchun $w_5$=0,10 deb belgilansa, u holda 2-jadvaldagi 2025 yil ko‘rsatkichlari ($K_m$=0,74; $K_i$=0,63; $K_n$=0,60) asosida integral indeks IIJ = 0,30×0,74 + 0,25×0,63 + 0,20×0,60 + 0,15×$K_f$ + 0,10×$K_r$ tarzida hisoblanadi. Fazoviy-shaharsozlik va manfaatdor tomonlar omillari bo‘yicha qo‘shimcha ekspertlar so‘rovi o‘tkazilgandan so‘ng, yakuniy integral ko‘rsatkich 0,60–0,70 oralig‘ida shakllanishi kutiladi, bu esa qurilish sanoatining investitsion jozibadorligi o‘rtadan yuqori darajada ekanini ko‘rsatadi. Ushbu misol modelning amaliy qo‘llanilishi va natijalarni izohlash tartibini namoyish etadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, integral baholash modelining amaliyotga joriy etilishi bir qator tashkiliy shartlarni talab etadi: birinchidan, qurilish korxonalarida investitsion tahlil bo‘yicha alohida tarkibiy bo‘linmalar yoki mutaxassislarning mavjudligi; ikkinchidan, vazn koeffitsientlarini muntazam ravishda ekspertlar so‘rovi orqali yangilab borish mexanizmi; uchinchidan, baholash natijalarini davlat idoralari va moliya institutlari bilan almashish uchun yagona axborot platformasining yaratilishi. Ushbu shartlarning ta’minlanishi integral modelning ilmiy asoslanganligini amaliy samaradorlikka aylantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qurilish sanoati korxonalarining investitsion jozibadorligini baholashda yagona uslubiy yondashuvga tayanish yetarli emas, chunki har bir yondashuv jozibadorlikning faqat ma’lum bir jihatini aks ettiradi. Integral indeks (IIJ) tarkibidagi uchta omil indeksining turlicha sur’atda o‘sishi — ayniqsa innovatsion-texnologik omilning eng tez (82 foizga), institutsional omilning esa eng sekin (54 foizga) o‘sishi — A. Badavi va hammualliflarning [3] xulosasini tasdiqlaydi: zamonaviy qurilish korxonalarining raqobatbardoshligi nafaqat moliyaviy, balki norasmiy ichki (innovatsion, tashkiliy) omillarga ham bog‘liq.

Institutsional omil indeksining nisbatan sekin o‘sishi M. A. Tachega va hammualliflarning [5] BRIKS+ mamlakatlari misolidagi xulosasini tasdiqlaydi: tartibga solish sifati va hukumat samaradorligidagi ijobiy o‘zgarishlar moliyaviy ko‘rsatkichlarga nisbatan sekinroq ro‘y beradi, chunki ular institutsional islohotlarning uzoq muddatli natijasi hisoblanadi. Bu natija, shuningdek, I. O. Karimovning ilgarigi tadqiqotidagi [9] xulosasi bilan ham mos keladi: tarmoq tarkibiy tuzilmasining modernizatsiyalashuvi investitsion samaradorlikning uzoq muddatli omili sifatida namoyon bo‘ladi.

V. Velichko va hammualliflarning manfaatdor tomonlar modeli [6] asosida olingan xulosalar shuni koʻrsatadiki, qurilish korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirishda faqat moliyaviy koʻrsatkichlarni yaxshilash emas, balki buyurtmachilar, davlat idoralari va mahalliy hamjamiyat bilan munosabatlar sifatini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Bu xulosa taklif etilgan integral modelda manfaatdor tomonlar omilining alohida koeffitsiyent (Kr) sifatida ajratilganini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Taklif etilgan integral baholash modeli amaliyotda quyidagi yoʻnalishlarda qoʻllanilishi mumkin: birinchidan, davlat idoralari uchun qurilish sanoatining investitsion jozibadorligini muntazam monitoring qilishda; ikkinchidan, tijorat banklari va moliya institutlari uchun qurilish loyihalarini kreditlashda tavakkalchilikni baholashda; uchinchidan, qurilish korxonalari rahbariyati uchun oʻz faoliyatining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashda. Tadqiqot natijalarining cheklangan jihati shundaki, vazn koeffitsiyentlarini (w1…w5) aniq belgilash uchun keng koʻlamli ekspertlar soʻrovi oʻtkazilishi talab etiladi; bu masala kelgusi empirik tadqiqotlar uchun ochiq boʻlib qolmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Oʻtkazilgan tadqiqot yakunida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Investitsion jozibadorlik qurilish sanoati korxonalarining raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini taʼminlovchi kompleks iqtisodiy kategoriya boʻlib, uni baholash nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

2. Investitsion jozibadorlikni baholashning mavjud uslubiy yondashuvlari (natijaviy, resurs, institutsional, koʻp mezonli, manfaatdor tomonlar) har biri oʻziga xos afzallik va cheklovlarga ega boʻlib, ularni alohida emas, balki uygʻunlashtirilgan holda qoʻllash zarurati asoslandi.

3. Tadqiqot doirasida aniqlangan asosiy xususiyat — innovatsion-texnologik omil indeksining eng tez (82 foizga), institutsional omil indeksining esa nisbatan sekin (54 foizga) oʻsishi, bu institutsional-huquqiy muhitni takomillashtirishga alohida eʼtibor qaratish zaruratini koʻrsatadi.

4. Muallif tomonidan taklif etilgan integral baholash modeli va indeksi (IIJ) ilmiy asoslangan boʻlib, ularni davlat idoralari, moliya institutlari va qurilish korxonalarining qaror qabul qilish jarayonlarida qoʻllash mumkin.

5. Investitsion jozibadorlikni oshirish uchun moliyaviy-iqtisodiy, institutsional, innovatsion, fazoviy-shaharsozlik, ekologik va manfaatdor tomonlar omillarini oʻzaro uygʻunlashtiruvchi kompleks siyosat yuritish zarurati asoslandi.

6. Vazn koeffitsiyentlarini (w1…w5) ilmiy asoslangan tarzda belgilash uchun qurilish sohasi ekspertlari oʻrtasida keng koʻlamli soʻrovnoma va ierarxiyalarni tahlil qilish (AHP) usulini qoʻllash tavsiya etildi.

7. Baholash natijalarining xalqaro reyting tizimlari bilan korrelyatsiyasini oshirish, shuningdek, baholash jarayonining shaffofligi va takrorlanuvchanligini taʼminlash boʻyicha chora-tadbirlar koʻrish tavsiya etiladi.

8. Integral baholash indeksini amaliyotga joriy etish uchun qurilish korxonalarida investitsion tahlil boʻlimlari faoliyatini takomillashtirish hamda tegishli metodik qoʻllanmalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Markowitz H.M. Portfolio Selection // *The Journal of Finance*. – 1952. – Vol. 7, No. 1. – P. 77–91.
2. Dunning J.H. *Multinational Enterprises and the Global Economy*. – 2nd ed. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 1993. – 687 p.
3. Badawy A., Al-Sakkaf A., Alfalah G., Mohammed Abdelkader E., Zayed T. Scrutinizing Competitiveness of Construction Companies Based on an Integrated Multi-Criteria Decision Making Model // *CivilEng*. – 2022. – Vol. 3, No. 4. – P. 850–872.
4. Proskurnina N., Chornomord Ya. Methods and Approaches to Assessing Investment Attractiveness // *Economy of Ukraine*. – 2022. – No. 4 (725). – P. 28–36.
5. Tachega M.A., Wang J., Chen Y., Ahmed R., Opoku E.O., Mintah C., Bart-Plange L. Investment Attractiveness in BRICS+ Economies: Evaluating Business Environment Reforms, Institutional Quality, and Macroeconomic Factors // *PLOS ONE*. – 2025. – Vol. 20, Issue 10. – Art. e0334043.
6. Velychko V., Grytskov E., Prunenko D. Economic and Mathematical Modeling of Investment Attractiveness of Construction Enterprises in the System of Stakeholder Relations // *Baltic Journal of Economic Studies*. – 2020. – Vol. 6, No. 4. – P. 56–65.
7. Mamonov K., Nesterenko S., Radzinskaya Y., Dolia O. City Lands Investment Attractiveness Calculation // *Geodesy and Cartography*. – 2019. – Vol. 68, No. 1. – P. 211–223.
8. Astanakulov O.T., Asatullaev K.S., Saidaxmedova N.I., Ergashev O.T. Strategic Support for Accounting for the Investment Process in the Innovation Industry // *Journal of Advanced Research in Law and Economics*.

– 2019. – Vol. 10, No. 6. – P. 1877–1883.
9. Yusupdjanova N., Karimov I. Investment Projects in the Field of Construction Materials Production // *ISJ Theoretical & Applied Science*. – 2020. – No. 03 (83). – P. 18–21.
10. Arifdjanova Z.D. Assessing the Improvement of Management Efficiency in Construction Companies // *American Journal of Economics and Business Management*. – 2024. – Vol. 7, No. 12. – P. 1337–1343.
11. G'iyosov Ilhom Karimovich. The Theorical Features of the Organization of the Strategic Management Accounting in Business // *Theoretical & Applied Science*. – 2019. – No. 9. – P. 260–266.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni, O'RQ-598-son, 2019-yil 25-dekabr.
14. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi «Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida» O'RQ-537-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-4329270
15. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha statistik to'plam, 2021–2025 yy.* – Toshkent, 2026.
16. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Xorijiy investitsiyalar va to'lov balansi sharhi, 2024–2025 yy.* – Toshkent: Markaziy bank, 2025.
17. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM). *Qurilish sanoati investitsion muhiti sharhi, 2025-yil*. – Toshkent: ITIM, 2025.
18. World Bank Group. *Doing Business and Investment Climate Assessment: Uzbekistan*. – Washington, D.C.: World Bank, 2024.

# YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 7/1**



© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz